



KIMYODAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

D.A.Karimova,
M.B.Qurbonova
Navoiy davlat pedagogika instituti

***Annotatsiya:** Bugungi kunda o'tkazilayotgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishining "Kimyo" ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning "Umumiy kimyo" kursini o'qish jarayonida, kimyo o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarda va pedagogik amaliyot davrida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi kimyosi mazmunidagi laboratoriya ishlari va eksperimentlarni mustaqil ravishda o'tkazish, ularni amalga oshirishga ijodiy yondashishlarida ayrim kasbiy muammolar sezilmoqda. Bunday muammolarning tahlili, bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini mustaqil o'tkazish tayyorgarligi ko'nikma va malakalari yuqori darajada emasligini namoyon etadi. Bundan, umumiy o'rta, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassalarida kimyo fanini o'qitish jarayonida laboratoriya mashg'ulotlarini yuqori darajada olib borishda kamchiliklar tug'iladi. Bu esa, ta'lim oluvchilarda eksperimental malaka hamda ko'nikmalarning shakllanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.*

***Kalit so'zlar:** kimyo, laboratoriya, muammo, kasbiy, natija, maqsad, model, ta'lim, natija.*

An'anaviy laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda talabalarga o'quv reja bo'yicha 4 soat vaqt ajratiladi, shuning 2 soati laboratoriya ishini bajarilish tartibi bilan tanishish, nazariy ma'lumot olish, tajriba o'tkazish va olingan natijalarga matematik ishlov berib xatoliklarni aniqlashdan iborat bo'ladi.

Bunda talaba oldidagi birinchi vazifa; ishning maqsadi, kerakli asbob va jihozlar, nazariy ma'lumotlar, ishni bajarish tartibi bilan tanishish, ishni bajarish va nazariy savollarga javob berish ketma-ketligida amalga oshiriladi. Talabalarda mazkur shaklning ishlanmasi asosida ish ko'rishlari ularni "qolip" ga solib qo'yadi. Eksperiment doirasidan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, talabalar tomonidan olingan nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash uchun o'tkazilayotgan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazilish tartibi, ketma-ketligini o'zgartirish, uni yangi ta'lim texnologiyalari elementlari bilan boyitish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bizning fikrimizcha aniq fanlarning namunaviy o'quv rejasidagi laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko'tarish muammosi kimyo fanlarini o'qitishda ham dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kun taraqqiyoti barcha fanlarga nisbatan yangicha yondashish zarurligini taqozo etmoqda. Chunki hozirgi kundagi talaba yoshlarning ruhiy rivojlanish darajasi o'tgan asrning 80-90 yillaiga nisbatan fan va texnologiyalarni, iqtisodiy rivojlanishni, ijtimoiy o'sishni inobatga olgan holda keskin



o'zgarganligini ilmiy psixologiya, pedagogika fanlaridan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'rsatmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlarning kunlik qabul qiladigan axborot ma'lumotlarining hajmi 1600-1800 ga teng. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida o'tiladigan kimyo, biologiya, matematika kabi fanlarning o'quv dasturlarida qayd etilgan mustaqil ish uchun ajratilgan o'quv soatlarini amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlarga qo'shish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga qamrab olgan laboratoriya mashg'ulotlari strukturasi o'zgartirish, unga zamon ruhini singdirish ayni paytda zarurat tug'dirmoqda.

Amalda mavjud modeldagi laboratoriya mashg'ulotlarining bajarish strukturasi: mavzuning nomi, ishning maqsadi, kerakli jihoz va qurilma, qisqacha nazariya, ishni bajarish tartibi, natijalarga matematik ishlov berib xatolikni aniqlash, nazorat savollaridan iborat. Taklif etilayotgan modelda laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish strukturasi yuqoridagilar bilan birga mustaqil ravishda turdosh laboratoriya ishini bajarish uchun yo'naltirilgan ma'lumotlar, mustaqil turdosh laboratoriya ishini bajarish, natijalar olish va xatoliklarni hisoblash, bajarilgan ishlar yuzasidan talaba hisoboti va xulosasi, bajarilgan laboratoriya ishi bo'yicha testlar beriladi.

Taklif etilayotgan modelda o'tkazilayotgan laboratoriya ishida talaba ishning amaliy ahamiyati, texnika va texnologiyada qo'llash darajasi va mustaqil o'zi topshiriqni olib ishni bajarishi, yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasidan foydalanib olingan natijalarga matematik ishlov berishi hamda qonuniyatni aniqlashi, shuningdek laboratoriya ishi bo'yicha tuzilgan test sinov savollariga javob izlash sharoitini yaratadi. Bunday yondashishimiz laboratoriya darslarida talaba mustaqil turdosh laboratoriya ishini o'tkazishi va uni test-sinov savollari bilan mustahkamlashi hamda ish bo'yicha hisobotda yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda xulosalar chiqarishiga imkoniyat yaratadi. Ana shunday tartibda ishni bajarish talabalarning eksperimental ish va tadqiqotning muhimligini anglashi, amaliyotda qo'llanilish darajasini bilishi, iqtisodiy tejamkorlikni keltirib chiqarishi va bevosita test-sinov savollari bilan uzviy bog'lanish natijasida imkoniyatlarini kengaytirishni va ma'suliyatlarini oshirishni nazarda tutmoqdamiz.

Taklif etilayotgan modelda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda mavjud ko'nikmalarni takomillashtirish va ixtirochilik qobiliyatini, shuningdek, kasbiy tayyorgarligini shakllantirish bugungi kunda o'ziga xos asosiy maqsaddir.



Bu usulda yondashish talabalarning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan bilish psixologik jarayonlarni har bir yosh uchun xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'limni tashkil etishning zamonaviy usul va uslublari, shakllarini tanlash uchun keng imkoniyat ochib beradi. Xususan, hozirgi kundagi ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'limni kompyuterlashtirish, ta'limni modellashtirish, ta'lim etalonini optimallashtirish, ta'limni individuallashtirish kabi shakllaridan kimyo darslarida o'tkaziladigan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun foydalanishning yangicha modelini yaratish imkonini beradi, shuningdek, talabalarni mustaqil faoliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.A.Karimova, " Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning pedagogik asoslari". Zamonaviy kimyoning dolzarb mavzusidaги Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокидаги онлайн илмий-амалий анжумани тўплами Бухоро, 2020 йил 4-5 декабрь.
2. Д.А.Каримова Организация самостоятельной работы студентов как важнейшая предпосылка приобретения прочных знаний. Ж. Педагогика и современность. Научно-педагогический журнал .№6 (20), 2015.
3. Д.А.Каримова. Кимё фанидан билим олишда қўйиладиган замонавий талаблар. Глобал олий таълим тизимида илмий тадқиқотларнинг замонавий услублари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллар.9-апрель, 2015-йил.
4. Khayrullayevna, K. G. (2021, June). PRAGMATIC FAILURES IN NOVERBAL COMMUNICATION OF REPRESENTATIVES OF DIFFERENT ETHNIC GROUPS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 100-101).